

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSC.07/30.12.2019.YU.22.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RZAEVA GUZALYA TURGUNBAYEVNA

**TASHKILOTLARDA BOSHLANG'ICH KASABA UYUSHMALARI
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi

AVTOREFERAT
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

Toshkent – 2025-yil

Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати мундарижаси

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Rzaeva Guzalya Turgunbayevna

Tashkilotlarda boshlang‘ich kasaba uyushmalari faoliyatini
takomillashtirish.....3

Рзаева Гузалья Тургунбаевна

Совершенствование деятельности первичных профессиональных союзов в
организациях.....23

Rzaeva Guzalya Turgunbayevna

Improving the activities of primary trade union organizations39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

RZAEVA GUZALYA TURGUNBAYEVNA

**TASHKILOTLARDA BOSHLANG'ICH KASABA UYUSHMALARI
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi

AVTOREFERAT
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

Toshkent – 2025-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1063 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb- sahifasida (www.tsul.uz) va "Ziyonet" Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Ziyadullayev Maxmudjon Djurakulovich yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent Madrahimova Guljahon Ruzimboy qizi yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “19” dekabr soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1461 raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “4”dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 4 dekabrda 100-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlari doktori, professor

D.Yu. Habibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasining (ITUC) 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, 280 milliondan ortiq ishchilar kasaba uyushmalariga a'zo hisoblanadi¹ va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari mehnat huquqlarini himoya qilishning eng muhim instituti bo'lib qolmoqda. Biroq kasaba uyushmalariga a'zolik darajasi tobora pasayib bormoqda: masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlarida u 1975-yildagi 33,9 foizdan 2022-yilda 15,8 foizgacha tushib ketdi², bu ishonch inqirozi va boshlang'ich kasaba uyushmalari tuzilmalarining zamonaviy muammolarga yetarlicha moslashmaganligidan dalolat beradi.

Xalqaro miqyosda kasaba uyushmalari harakatini transformatsiya qilish tendensiyalari, xususan, uning funksiyalarini an'anaviy huquqni himoya qilishdan ijtimoiy siyosatni shakllantirishda faol ishtirok etish, raqamli savodxonlik, nostandart bandlik sharoitida xodimlarning huquqlarini himoya qilishga kengaytirish tendensiyalari kuzatilmoqda. Bu boshlang'ich tashkilotlardan ishni tashkil etishga yangicha yondashuvlarni, kasaba uyushmasi a'zolari bilan o'zaro munosabatlarning innovatsion shakllarini joriy etishni, huquqiy va strategik salohiyatni kuchaytirishni talab qiladi.

O'zbekistonda 37 mingdan ortiq boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlari mavjud bo'lishiga qaramasdan³, ularning faoliyati hanuzgacha asosan eskirgan, sovet davridan meros qolgan modellar doirasida amalga oshirilmoqda: asosiy e'tibor yo'llanmalarni taqsimlash, moddiy yordam ko'rsatish va madaniy-maishiy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan bo'lib, huquqni himoya qilish va vakillik funksiyalari chetda qolmoqda. Bu xodimlarning ishonchini, kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish motivatsiyasini pasaytiradi va ularning ish beruvchilar tomonidan qarorlar qabul qilishga ta'sirini cheklaydi. Zamonaviy sharoitlarda – raqamlashtirish, bandlikning moslashuvchan shakllari va huquqiy savodxonlikning o'sishi – ijtimoiy sheriklik tizimining mustaqil va tashabbuskor ishtirokchilari sifatida boshlang'ich tashkilotlarning rolini qayta ko'rib chiqish zarur. Shu bilan birga, amaliyotda jamoaviy muzokaralarda sust ishtirok etish, faoliyatning rasmiyatchilikka asoslanganligi, ma'muriyatga qaramlik, xodimlar huquqlarining yetarli darajada himoya qilinmaganligi, boshlang'ich tashkilotlar vakolatlarini qonunchilik yo'li bilan tartibga solishdagi bo'shliqlar kabi ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Bularning barchasi boshlang'ich kasaba uyushmalari faoliyatining ham huquqiy, ham tashkiliy modelini takomillashtirish zarurligidan iborat ilmiy muammoni shakllantiradi.

Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2022), shuningdek, "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi (2019), "Nodavlat notijorat tashkiloti to'g'risida"gi (1999), "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi (1991), "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi (2014) qonunlari va boshqa normativ-huquqiy

¹ <https://www.ituc-csi.org/>

² <https://www.oecd.org/en/>

³ https://uza.uz/ru/posts/mamlakatimizdagi-yangilanish-zharayonida-kasaba-uyushmalari-ham-faol-qatnashmoqda_655453?q=%2Fposts%2Fmamlakatimizdagi-yangilanish-zharayonida-kasaba-uyushmalari-ham-faol-qatnashmoqda_655453

hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu sohadagi davlat siyosati kasaba uyushmalarining rolini kuchaytirish yo‘nalishida izchil amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti kasaba uyushmalarining kasb bayrami munosabati bilan yo‘llagan tabrigida quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: “...Mamlakatimizdagi barcha ish beruvchilar va rahbarlar dunyoda umume’tirof etilgan qoidaga amal qilishlari shart, deb hisoblayman: har bir korxona, muassasada albatta kasaba uyushmasi tashkiloti faoliyat ko‘rsatishi va rahbarlar u bilan yaqindan hamkorlik qilishi shart. Shundagina biz mehnat qonunchiligi buzilishining oldini olishimiz va hayotimizda ijtimoiy adolatni qaror toptirishimiz mumkin...”¹. Bu muammoning davlat siyosati darajasidagi ahamiyati va kasaba uyushmalari faoliyatini boshlang‘ich tashkilotlar darajasida huquqiy modernizatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” (2020) ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu dissertatsiya tadqiqotini tayyorlash jarayonida muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi va bir qator xorijiy davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlari har tomonlama tahlil qilindi. Respublikaning turli mintaqalaridagi boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy faoliyatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Bundan tashqari, kasaba uyushmalari faoliyatining dolzarb muammolari va jamoatchilik tomonidan qabul qilinishini aniqlashga qaratilgan sotsiologik so‘rov natijalari baholandi. Ushbu manbalar dissertatsiyaning nazariy qoidalari va amaliy xulosalarini asoslash uchun muhim empirik asos bo‘lib xizmat qildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mehnat huquqi va u bilan bog‘liq jihatlar, shu jumladan, kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha alohida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, M.A. Rahimov “Xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish (qiyosiy-huquqiy tahlil)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. L.U. Raximkulova – “Yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko‘rib chiqish tartibi”, B.Ch. Yarashev – “Mehnatga oid munosabatlarni lokal normativ hujjatlar darajasida huquqiy tartibga solish” va M.R. Toshev – “Xodimning aybli xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lmagan holda ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish” mavzularida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Shuningdek, boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining huquqiy maqomi va vazifalari bilan bog‘liq ayrim masalalar X.Burxonxo‘jayeva, M.Karimjonov, G.Sattarova, N.Saparniyozov, U.Avezov, A.Abdurahmonov, A.Nuritdinova, A.Yo‘ldoshev, S.Yunusova, A.Yunusxo‘jayev kabi milliy-huquqshunos olimlarimizning ilmiy ishlarida o‘rganilgan².

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/5688>

² Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

MDH mamlakatlarida boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyati sohasida F.A. Abayev, A.A. Appakov, Yu.A. Belaya, D.V. Lobk, M.V. Lushnikov, G.V. Malsevoy, L.M. Mayirovoy, T.P. Shishulinoy va I.V. Shklovetslarning asarlari ilmiy-amaliy asarlari alohida ahamiyatga ega¹.

Xorijiy mamlakatlarda kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyati va ijtimoiy muloqot mexanizmlari masalalari bir qator yetakchi tadqiqotchilarning asarlarida keng yoritilgan. Kasaba uyushmalari harakatining rivojlanishiga J.M. Bonvin, J.E. Dolvik, L. Eldring, R. Dukes, B. Hepple, B. Langille kabi mualliflar katta hissa qo'shdilar. A. Lyon-Caen va J.D. Pellissierning "*Droit du travail*" nomli klassik asari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda mehnat qonunchiligi va xodimlar manfaatlarini ifodalash institutlari masalalari kompleks tarzda ko'rib chiqilgan. Kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi va jamoaviy mehnatni tartibga solish modellari tahliliga nazariy-amaliy yondashuv T. Novitz, Veit Valentin, shuningdek osiyolik zamonaviy tadqiqotchilar Nguyen Thu Ha va Dang Suan Yaplarning ilmiy ishlarida kuzatiladi².

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mehnat qonunchiligini rivojlantirish istiqbollarini aniqlash va mehnat bozorini huquqiy tartibga solishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish" hamda "Xalqaro mehnat huquqi yutuqlari va rivojlangan mamlakatlar qonunchilik amaliyotini nazariy tahlil qilish asosida olingan natijalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalarini tadqiq etish" kabi ilmiy loyihalar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatining huquqiy va tashkiliy mexanizmini kompleks tahlil qilish, ular faoliyatidagi mavjud muammolarni aniqlash, shuningdek, xalqaro tajriba va mehnatni huquqiy tartibga solishning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning huquqiy maqomi, vakolatlari va ijtimoiy sheriklik tizimidagi rolini takomillashtirish bo'yicha nazariy jihatdan asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish instituti sifatida boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatining nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;
- boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining mehnat munosabatlarini tartibga solishda, shu jumladan jamoaviy muzokaralar va ijtimoiy sheriklik doirasida ishtirok etishining huquqiy modellarini ko'rib chiqish;
- boshlang'ich kasaba uyushmalarining maqomi va funksiyalarini huquqiy tartibga solish bo'yicha xorijiy tajribani, xususan, MDH mamlakatlari va rivojlangan huquqiy tizimlarni tadqiq qilish;

¹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

² Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

- O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani o'rganish, uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;

- xodimlarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari huquqlarining amalga oshirilishini o'rganish, shuningdek, ularning samaradorligi to'g'risidagi sotsiologik so'rovlar natijalarini hisobga olgan holda mintaqaviy darajada yakka tartibdagi va jamoaviy mehnat nizolarini hal qilishda ishtirok etish amaliyotini tahlil qilish;

- mintaqaviy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari huquqlarini, shu jumladan huquqni qo'llash amaliyoti sohasida samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolarni aniqlash va tasniflash;

- raqamlashtirish va bandlikning yangi shakllari tarqalishining boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish;

- sohada amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti tashkilotlarda boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining tashkil etilishi, faoliyati, kasaba uyushmasi tashkiloti funksiyalarini amalga oshirish, shuningdek, kasaba uyushmasi tashkilotining ish beruvchi bilan ijtimoiy sheriklik doirasidagi o'zaro munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmeti boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatining huquqiy va tashkiliy jihatlar bilan bog'liq milliy qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda yuridik ilm-fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish kabi usullar qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari va ularning bo'linmalariga adliya organlarida ro'yxatdan o'tish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilish huquqining berilishi ularning tashkiliy mustaqilligini kuchaytirishi va bunday tuzilmalarning ijtimoiy sheriklikning mustaqil subyektlari sifatida e'tirof etilishiga ko'maklashishi asoslab berilgan;

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan bo'linmalar va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlariga ixtiyoriylik asosida identifikatsiya soliq raqamini (STIR) berish ularning ma'muriy va moliyaviy imkoniyatlarini, shu jumladan, bank hisobvaraqlarini ochish, shartnomalar tuzish va hisobotlarni yuritish masalalarida kengaytirishga xizmat qilishi asoslangan;

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarini hisobga qo'yishda inson omilini cheklash tamoyilining me'yoriy jihatdan mustahkamlanishi uyushma huquqlarini amalga oshirishda subyektivizm va ma'muriy to'siqlarni minimallashtirish yo'lidagi muhim qadam ekanligi asoslab berilgan;

boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarini hisobga qo'yish usullarini Davlat xizmatlari markazlari, Nodavlat notijorat tashkilotlarining elektron platformasi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali kengaytirish zarurligi asoslantirilgan;

kasaba uyushmalariga, shu jumladan ularning boshlang'ich tashkilotlariga xodimlar manfaatlarini ko'zlab sudga murojaat qilish huquqining e'tirof etilishi ularning protsessual maqomi va huquqni himoya qilish funksiyasini kuchaytirishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining asosiy vazifalari xodimlar manfaatlarini ifodalash va huquqiy himoya qilishdan iborat bo'lishi lozimligi asoslantirilgan. Shu bilan birga, kasaba uyushmalari tarmog'i iyerarxiyasida aynan boshlang'ich tashkilot markaziy o'rinni egallashi kerak va butun tizimning faoliyat tamoyili "pastdan yuqoriga" tuzilishi kerak, bunda tashabbus va qarorlar quyi darajadan kelib chiqadi va kasaba uyushmalari tuzilmasining yuqori bosqichlarida muvofiqlashtiriladi;

O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni va Mehnat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shu jumladan, boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining huquqiy maqomi to'g'risida alohida modda kiritish, "vakillik" va "himoya" tushunchalariga aniqlik kiritish, boshlang'ich tashkilot tuzish uchun xodimlarning eng kam sonini belgilash, jamoaviy muzokaralarni huquqiy jihatdan belgilash va ish tashlash huquqini e'tirof etish, raqamli aloqa kanallari va onlayn ishtirok etish shakllaridan foydalanishni tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi yoki bo'lmasligiga qaramay, vakillik qilish, xodimlar manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy sheriklikda ishtirok etish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqlariga ega bo'lgan mehnat huquqining mustaqil subyekti sifatida ochib beruvchi mualliflik ta'rifi asoslantirilgan;

ro'yxatdan o'tkazish, vakillik vakolatlari, axborotdan foydalanish va jamoaviy muzokaralarda ishtirok etish bo'yicha huquqiy noaniqliklarni bartaraf etish boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart ekanligi asoslab berilgan;

boshlang'ich kasaba uyushmalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish va ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni istisno etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan;

milliy qonunchilikda ish tashlash instituti va jamoaviy harakatlarning boshqa shakllarining mavjud emasligi xodimlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini sezilarli darajada cheklashi hamda XMT konvensiyalarida mustahkamlangan xalqaro mehnat standartlariga mos kelmasligi asoslab berilgan;

boshlang'ich tashkilotlar tuzilmasida huquqni himoya qilish xizmatlari tarmog'ini yaratish, o'qitish, maslahat va tajriba almashish uchun raqamli platformani joriy etish, shuningdek mehnat huquqlari buzilganda amal qilinadigan uslubiy qo'llanmalar va harakat algoritmlarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kasaba uyushmalari faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha takliflar majmuasi shakllantirildi: kasaba uyushmalari a'zolarining elektron hisobini yuritish, ichki tartib-taomillarda videomuloqot va onlayn ovoz berishdan foydalanish, masofaviy a'zolikni va xodimlarning ishtirokini ta'minlovchi raqamli vositalarni joriy etish.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, amaliyotchilar o'rtasida o'tkazilgan anketa, intervyu va ekspert so'rovi shakllariga asoslangan, statistik ma'lumotlar tahlili natijalari umumlashtirilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti, mehnat va fuqarolik qonunchiligining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, mehnat huquqi fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, oliy yuridik ta'lim muassasalarida mehnat huquqi sohasidagi fanlarni o'qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Respublikada boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanib:

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari va ularning bo'linmalariga adliya organlarida ro'yxatdan o'tish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilish huquqining berilishi ularning tashkiliy mustaqilligini kuchaytirishi va bunday tuzilmalarning ijtimoiy sheriklikning mustaqil subyektlari sifatida e'tirof etilishiga ko'maklashishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan kasaba uyushmalari tashkilotlarini hisobga qo'yish tartibi belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni 1-moddasining ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining 2025-yil 8-iyuldagi 15-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni joriy etilishi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari va ularning bo'linmalari mustaqilligining kuchaytirishiga xizmat qilgan;

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan bo'linmalar va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlariga ixtiyoriylik asosida identifikatsiya soliq raqamini (STIR) berish ularning ma'muriy va moliyaviy imkoniyatlarini, shu jumladan, bank hisobvaraqlarini ochish, shartnomalar tuzish va hisobotlarni yuritish masalalarida kengaytirishga xizmat qilishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan kasaba uyushmalari tashkilotlarini

hisobga qo'yish tartibi belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni 2-moddasining uchinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining 2025-yil 8-iyuldagi 15-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan kasaba uyushmalari tashkilotlarini hisobga qo'yish tartibi belgilanishiga xizmat qilgan;

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarini hisobga qo'yishda inson omilini cheklash tamoyilining me'yoriy jihatdan mustahkamlanishi uyushma huquqlarini amalga oshirishda subyektivizm va ma'muriy to'siqlarni minimallashtirish yo'lidagi muhim qadam ekanligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kasaba uyushmalari filiallari va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining 1-bandi ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik departamentining 2025-yil 7-iyuldagi 12-16-51-son dalolatnomasi). Ushbu taklif yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarini hisobga qo'yish tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarini hisobga qo'yish usullarini Davlat xizmatlari markazlari, Nodavlat notijorat tashkilotlarining elektron platformasi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali kengaytirishga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kasaba uyushmalarining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan filiallari va boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining 2-bandi ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik departamentining 2025-yil 7-iyuldagi 12-16-51-son dalolatnomasi). Mazkur taklif boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarini hisobga qo'yish usullarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

kasaba uyushmalariga, shu jumladan ularning boshlang'ich tashkilotlariga xodimlar manfaatlarini ko'zlab sudga murojaat qilish huquqining e'tirof etilishi ularning protsessual maqomi va huquqni himoya qilish funksiyasini kuchaytirishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 7-bandining uchinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 3-iyuldagi 08/304-25-son dalolatnomasi). Ushbu taklif kasaba uyushmalari tomonidan xodimlar manfaatlari samarali himoya qilinishi kuchaytirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 4 ta ilmiy jurnallarda (ulardan 2 tasi xorijiy jurnalda) ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘qqiz paragrafdan iborat uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi *boshlang‘ich kasaba uyushmalari faoliyatining nazariy-huquqiy asoslariga bag‘ishlangan* va mazkur institut faoliyatining muhim jihatlarini qamrab olgan uchta paragrafga bo‘lingan.

Birinchi bobning dastlabki paragrafida XIX asrdan boshlangan kasaba uyushmalari institutining tarixi va rivojlanishi ko‘rib chiqilgan. Kasaba uyushmalari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar sharoitida ishchilar manfaatlarini himoya qilish zaruriyatiga javoban vujudga keldi. Bu tashkilotlar nafaqat mehnat huquqlarini himoya qilish vazifasini, balki kengroq vazifalarni ham bajardilar: ular “o‘zaro yordam jamiyatlari”, nafaqa jamg‘armalari, madaniy va ijtimoiy faollik markazlariga aylandilar. Kasaba uyushmalari siyosiy kurashda muhim rol o‘ynadi va ularning faoliyati ishchilarning o‘zlarini mehnat sohasida va umuman jamiyatda o‘zgarishlarga erishish uchun birlashishga qodir bo‘lgan faol ijtimoiy subyektlar sifatida anglashlariga yordam berdi.

Dastlab Buyuk Britaniyada dastlabki kasaba uyushmalari – tred-yunionlar tashkil topgan bo‘lsa-da, ular uzoq vaqt davomida qonunchilik cheklovlari ostida yashab kelgan. XIX asrda harakat “eski” va “yangi” tredyunionlarga bo‘lingan. “Eskilar” yuqori malakali ishchilarni birlashtirgan va quyi sinf vakillari uchun yopiq bo‘lgan. O‘z navbatida, XIX asrning 80-yillarida shakllangan “yangi” tred-yunionlar turli malaka darajasidagi ishchilarni jalb qildi, bu esa ularni yanada ommaviylashtirdi va kasaba uyushmalarining ijtimoiy va siyosiy ishtirokini kengaytirishga yordam berdi. Buyuk Britaniya misoli AQShda kasaba uyushmalari harakatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi, bu yerda birinchi tred-yunionlar ham XVIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘ldi, ammo kasaba uyushmalari faqat fuqarolar urushidan keyin 1860-yillarda sezilarli o‘sish va tashkiliy rivojlanishni boshdan kechirdi. Fransiyada kasaba uyushmalari Buyuk fransuz inqilobidan boshlab hokimiyatning qattiq taqiqlari sharoitida paydo bo‘lgan. Faqat 1884-yilga kelib, professional sindikatlar tuzishni qonuniylashtiruvchi qonun qabul qilindi. Bu jarayon kasaba uyushmalarining siyosiy rolini inkor etib, ish beruvchilar va davlatga bevosita ta’sir o‘tkazishni afzal ko‘rgan anarxo-sindikalistik mafkura bilan

murakkablashdi. Germaniyada kasaba uyushmalari 1848-yil inqilobidan keyin shakllana boshladi va 1860-yillarga kelib kuchli ishchi ittifoqlari mavjud edi.

Ushbu mamlakatlarda kasaba uyushmalarining rivojlanish xususiyatlari nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar, balki ular mavjud bo'lgan siyosiy rejimlar bilan ham belgilanadi. Shunday qilib, G'arb mamlakatlarida kasaba uyushmalari harakatining paydo bo'lishi va rivojlanishi bir necha bosqichlarni bosib o'tdi: ishchilarning professional guruhi bilan cheklangan mahalliy birlashmalardan tortib, ijtimoiy sheriklik va siyosiy ta'sirga intilgan ommaviy tashkilotlargacha.

SSSRda kasaba uyushmalari tashkil etilgan vaqtdan boshlab, ular davlat apparatining bir qismiga aylanib, mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirliklariga o'xshash vazifalarni bajardilar. Biroq 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingandan so'ng kasaba uyushmalari harakatini isloh qilish, uning davlat va xo'jalik organlaridan mustaqilligini o'rnatish sari qadam qo'yildiki, bu mamlakatda kasaba uyushmalarining mavqeini tubdan o'zgartirib yubordi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti tushunchasi va huquqiy maqomi tadqiq etilgan bo'lib, bu milliy va xalqaro huquqiy doktrinada uzoq davom etgan ilmiy munozara mavzusi hisoblanadi. Kasaba uyushmasi harakati shakllarining xilma-xilligi, huquqiy tizimlar va tarixiy-madaniy kontekstlardagi farqlar boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining ta'rifida bir xillikning yo'qligini belgilaydi.

Qiyosiy tahlil turli mamlakatlarda kasaba uyushmalarining rolini belgilaydigan bir nechta huquqiy va mafkuraviy ta'limotlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: sinfiy kurash doktrinasi, ijtimoiy sheriklik, plyuralistik, avtonom va xizmat ko'rsatish. Ularning har biri boshlang'ich tashkilotlarning huquqiy maqomiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik modeli ustunlik qiladi, ammo postsovet hududiga xos bo'lgan institutsional qaramlik elementlari mavjud. Shu bilan birga, avtonom doktrinaga, ayniqsa, kasaba uyushmalarining huquqni himoya qilish va vakillik faoliyatiga yaqinlashish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda (XMTning 87, 98, 135, 154-sonli Konvensiyalari, 143-sonli Tavsiyalari) boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining rasmiy ta'rifi mavjud emas, biroq B. Langille ta'kidlaganidek, aynan ushbu hujjatlar "eng avvalo kasaba uyushmasi tizimining boshlang'ich bo'g'ini – joylardagi jamoaviy vakillikka nisbatan qo'llaniladigan standartni shakllantiradi". B. Xepplning ta'kidlashicha, "jamoaviy muzokaralarning xalqaro standartlarini amalga oshirish birlamchi kasaba uyushmalari tuzilmalari faoliyat ko'rsatadigan korxonalar darajasida muzokaralar huquqini tan olmasdan turib mumkin emas".

Milliy modellarning (Germaniya, Fransiya, Skandinaviya, Qozog'iston) tahlili shuni tasdiqlaydiki, boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining rolini kuchaytirish kasaba uyushmalarini himoya qilish tizimini – institutsional muvofiqlashtirish darajasiga qarab – ham mustahkamlashi, ham izdan chiqarishi mumkin. Masalan, Germaniyada, W. Daublerning so'zlariga ko'ra, "kasaba uyushmalari ishlab chiqarish kengashlarining tabiiy hamkorlari hisoblanadi", Fransiya esa, Antoine Lyon-Caen ta'kidlaganidek, kasaba uyushmalari zaif vertikal integratsiyaga qaramay, "korxonalar doirasida qonuniylikni oladi". Skandinaviya mamlakatlarida, Jon Erik Dolvik va Line Eldring xulosalariga ko'ra,

“aynan korxona va tarmoq darajasidagi boshlang‘ich tashkilotlar bandlikni tartibga solishning asosiy funksiyalarini amalga oshiradi”.

O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni (2019) boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkilotining ta‘rifini tegishli kasaba uyushmasining ustavi asosida faoliyat yurituvchi xodimlar yoki o‘quvchilarning ixtiyoriy birlashmasi sifatida belgilaydi. Biroq, A.X. Abdurahmonova ta’kidlaganidek, mazkur yuridik ta’rif mehnat huquqining subyekti sifatida boshlang‘ich tashkilotning butun mohiyati va vazifalarini ochib bermaydi. Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida muallif tomonidan boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkilotining ham vakillik, ham huquqni himoya qilish, tashkiliy va nazorat funksiyalari ta’kidlangan mualliflik ta’rifi taklif etilgan. Ushbu ta’rif uni yordamchi bo‘g‘in sifatida emas, balki kundalik mehnat muhitida ijtimoiy sheriklik me‘yorlarini amalga oshirishga qodir bo‘lgan mehnat demokratiyasining mazmun jihatidan markaziy subyekti sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Uchinchi paragrafda muallif xalqaro hujjatlarda (birinchi navbatda, XMT Konvensiyalarida), shuningdek milliy qonunchilikda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunida mustahkamlangan kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy tamoyillarini ko‘rib chiqadi. Bunday tamoyillar orasida uyushish erkinligi, kasaba uyushmalarining mustaqilligi, kasaba uyushmasi belgisi bo‘yicha kamsitishdan himoyalalanish, ixtiyoriy jamoaviy muzokaralar va axborot olish imkoniyati kabilar ajralib turadi. Ushbu tamoyillar kasaba uyushmalari faoliyatini huquqiy tartibga solish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish uchun shart-sharoitlarni ta‘minlaydi.

Muallif ushbu tamoyillar qonunchilikda rasman mustahkamlangan bo‘lsa-da, amalda ularni amalga oshirish ma‘muriy to‘siqlar, tashqi aralashuv va xodimlar huquqlarining yetarli darajada himoya qilinmasligi kabi muayyan qiyinchiliklarga duch kelishiga e‘tibor qaratadi. Kasaba uyushmalarining samarali faoliyat yuritishi uchun nafaqat ushbu normalarni qonunchilikda mustahkamlash, balki ularni amalga oshirish uchun real shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan himoya mexanizmlarini rivojlantirish, xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, davlat, ish beruvchilar va kasaba uyushmalari o‘rtasidagi ijtimoiy muloqotni yaxshilash muhimdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish” deb nomlanib, bunday tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan. Unda ushbu tashkilotlarning huquq va majburiyatlariga oid asosiy huquqiy jihatlar, shuningdek, ularning O‘zbekiston Respublikasida xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish tizimidagi o‘rni ochib berilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi ijtimoiy sheriklik tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining huquq va majburiyatlarini qonunchilik yo‘li bilan tartibga solishga bag‘ishlangan. Muallifning ta’kidlashicha, boshlang‘ich tashkilotlarga jamoaviy muzokaralar olib borish, mehnat nizolarini hal etishda ishtirok etish, axborot olish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqlarining berilishi xodimlarning mehnat huquqlarini samarali himoya qilish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kasaba uyushmalari faoliyatining huquqiy tabiati ikki tomonlama xarakterga ega: kasaba uyushmalari bir vaqtning o'zida xodimlarning manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi, bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasida qayd etilgan. Ushbu holatni tahlil qilar ekan, muallif Z.G. Dzutsevaning vakillik va himoya "organik birlikni ifodalaydi" va alohida funksiyalar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emas, degan xulosalariga tayanadi.

Vakillik va himoya funksiyalarini qonunchilikda me'yoriy mustahkamlash zarurligi haqidagi munozara doirasida ularning aniq chegaralanishi kasaba uyushmalarining huquqiy aniqligini va mas'uliyatini oshirishga imkon berishi ta'kidlanmoqda.

"Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonun (2019) va Mehnat kodeksi qoidalarini tahlil qilish boshlang'ich tashkilotlarning asosiy huquqlarini, shu jumladan jamoaviy muzokaralar olib borishning ustuvor huquqi (29-modda), axborot olish huquqi (32-modda), jamoatchilik nazoratini amalga oshirish (34-modda) va xodimlarning huquqlarini sud orqali himoya qilish (35-modda) huquqlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Biroq dissertatsiyada ta'kidlanganidek, ushbu qoidalar tizimlashtirish, aniqlashtirish va yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Rossiya modellarining qiyosiy-huquqiy tahlili shuni ko'rsatadiki, jamoaviy-shartnomaviy tartibga solishning o'zbek modeli umuman olganda xalqaro standartlarga mos keladi, biroq u ayrim bo'shliqlarga ega – xususan, Mehnat kodeksida jamoaviy muzokaralar ta'rifining yo'qligi. Shu munosabat bilan muallif XMTning 154-sonli Konvensiyasiga murojaat qiladi, unda muzokaralar tomonlar o'rtasida mehnat sharoitlari va o'zaro munosabatlarni o'rnatish vositasi sifatida belgilangan.

Tadqiqotda axborot olish huquqiga alohida e'tibor qaratilgan. A.F. Nurtdinova va Ya.A. Kantorovichning pozitsiyasini qo'llab-quvvatlagan holda, muallif ushbu huquq korxona boshqaruvida kasaba uyushmasi ishtirokining asosi ekanligini ta'kidlaydi, ammo ma'lumotlarning aniq ro'yxatini va ularni taqdim etmaganlik uchun javobgarlikni belgilashni talab qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobining keyingi paragrafi xodimlarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining huquqlari tahliliga bag'ishlangan. Oldingi paragrafdan farqli o'laroq, bu yerda inson huquqlarini himoya qilish faoliyatining aniq mexanizmlariga urg'u berilgan. A.V. Rushevaning ta'kidlashicha, boshlang'ich tashkilot mahalliy darajada xodimlarning manfaatlarini ifodalaydi. Tahlilning birinchi yo'nalishi kasaba uyushmalarining yakka mehnat nizolarini hal etish va sud himoyasida ishtirok etishidir. Mehnat nizolari komissiyalari mavjudligiga qaramay (2023-yilda 41 mingdan ortiq komissiya tashkil etilgan), ularning ishi ko'pincha rasmiylashtirilgan. N. Saparniyazov vakillarning huquqiy tayyorgarligi yetarli emasligi va ish beruvchilarning bosimiga ishora qiladi, bu esa huquqlarni himoya qilish samaradorligini pasaytiradi. Xalqaro amaliyotda, masalan, Germaniya va Fransiyada kasaba uyushmalari mehnat sudlarida faolroq rol o'ynaydi va aksariyat ishlarda ijobiy natijaga erishadigan yuridik xizmatlarga ega.

Ikkinchi yo'nalish – mehnat muhofazasida ishtirok etish. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar mustaqil subyekt sifatida kasaba uyushmasi nomidan ish

ko‘radi, ammo qo‘shimcha huquqiy kafolatlarni talab qiladi. A.Yu. Toporovning ta‘kidlashicha, agar himoya bo‘lmasa, ular nominal figuralarga aylanadi. S.X. Yunusova ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazishning huquqbuzarliklarning oldini olish vositasi sifatidagi ahamiyatini ta‘kidlaydi.

Uchinchi yo‘nalish – jamoaviy muzokaralar va shartnomalar tuzishda ishtirok etish. Atle Xoye (IndustriALL) jamoaviy muzokaralar munosib mehnat sharoitlariga erishishning asosiy mexanizmi ekanligini ta‘kidlaydi. O‘zbekistonda boshlang‘ich kasaba uyushmalariga bunday muzokaralar olib borish huquqi berilgan, ammo ularni amalga oshirish ishchilardan ko‘proq faollikni talab qiladi. Muallif jamoa bo‘lib harakat qilish huquqining cheklanganligini ta‘kidlaydi. Yu. Suxorukova ta‘kidlaganidek, bu kasaba uyushmasi faoliyatining ajralmas qismidir. Ammo O‘zbekistonda ish tashlashga ruxsat berilmagan, bu xalqaro amaliyotga zid va kasaba uyushmalarining imkoniyatlarini cheklaydi.

Ilmiy ishning ikkinchi bobi uchinchi paragrafi (“Mehnat nizolarini hal qilishda boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining ishtiroki”) yakka tartibdagi va jamoaviy mehnat nizolarini hal qilishda boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining ishtiroki shakllari, shu jumladan muzokaralar, sud himoyasi va yarashuv tartib-taomillari tahliliga bag‘ishlangan.

Muzokaralar jarayoniga ijtimoiy muloqotning asosiy vositasi sifatida alohida e‘tibor qaratildi. B. Nalebaffning ta‘kidlashicha, mehnat sohasidagi kelishmovchiliklar sharoitida tomonlar muzokaralar pozitsiyasini kuchaytirish vositasi sifatida ish tashlashga murojaat qilishlari mumkin. Ammo amaliyotda muzokaralarning samaradorligi resurslarning nomutanosibliigi, rasmiyatchilik va faollarga bosim o‘tkazish bilan cheklanadi. Professor Q.X. Abdurahmonovning ta‘kidlashicha, muzokaralarning barqarorligi tomonlar o‘rtasida teng huquqli o‘zaro ta‘sirning shakllanishi va inson taraqqiyotiga bog‘liq. Amerikalik kasaba uyushmalari faoli to‘g‘ri ta‘kidlaydi: kasaba uyushmalari – bu nafaqat o‘zboshimchalikdan himoya qilishga, balki yanada adolatli mehnat muhitini shakllantirishga qodir bo‘lgan ishchilarning ovozi.

Himoyaning navbatdagi shakli sud orqali vakillik qilishdir. Mehnat kodeksining 559-moddasi va “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 27 – 33-moddalarida maxsus protsessual kafolatlar bo‘lmasa-da, boshlang‘ich kasaba uyushmalariga xodimlarning manfaatlarini ko‘zlab sudga murojaat qilish huquqi berilgan. Nguyen Thu Xa ta‘kidlaganidek, sud himoyasi kasaba uyushmasi funksiyasini amalga oshirishning asosiy huquqiy shakllaridan biridir. O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda kasaba uyushmalari ishtirokida 342 mingdan ortiq kasaba uyushmalari a‘zolarining huquqlari tiklangan, ulardan 114 mingga yaqini sud orqali amalga oshirilgan.

Kasaba uyushmalarining yarashtirish komissiyalari ishidagi ishtiroki muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Lekin bunda huquqiy kolliziya shundan iboratki, Mehnat kodeksining 570-moddasida qayd etilganidek, ushbu tartib-taomillar faqat jamoaviy nizolarga nisbatan qo‘llaniladi, bunda ularning tashabbusi uchun zarur bo‘lgan ish tashlash huquqi mavjud emas. Bu qonunchilikka tuzatish kiritishni talab qiladigan “paradoksali vaziyat”ni keltirib chiqaradi.

Xalqaro va milliy manbalar tahlili shundan dalolat beradiki, boshlang‘ich kasaba uyushmalari mehnat nizolarini hal etishda, ayniqsa, xususiy sektorda

yetarlicha mustaqillikka ega emas. XMT Ekspertlar qo'mitasi ta'kidlaganidek, kasaba uyushmalariga ko'pincha mustaqillik va malaka yetishmaydi. A.X. Yuldashev "birlamchi"larning ish tajribasini o'rganib, ularning asosan maslahat berish funksiyasi bilan cheklanganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlari huquqlarini amalga oshirishni cheklovchi asosiy to'siqlar tahlil qilingan. Muallifning ta'kidlashicha, mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmlari sifatida boshlang'ich tashkilotlarning roli ortib borayotgan bir paytda, joylarda samarali ijtimoiy sheriklikni shakllantirishga to'sqinlik qilayotgan huquqiy va institutsional to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida O'zbekistonda boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari huquqlarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar tizimlashtirilgan. Asosiy muammolardan biri sifatida kasaba uyushmalarini ro'yxatga olishning haddan tashqari byurokratlashtirilgan tartibi ko'rsatilgan bo'lib, u Xalqaro mehnat tashkilotining 87-sonli Konvensiyasi standartlariga javob bermaydi. Mazkur huquqiy konstruksiya BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitasi hamda Yevropa tashqi aloqalar xizmati tomonidan O'zbekistonning xalqaro majburiyatlariga mos kelmasligi tanqid qilindi. Shunga o'xshash amaliyotlar boshqa postsovet mamlakatlari uchun ham xos: Qozog'istonda kasaba uyushmalari qayta ro'yxatdan o'tishga majbur, Belarusda esa ro'yxatdan o'tish tartibi haddan tashqari tartibga solingan.

Shuningdek, kasaba uyushmalarining institutsional mustaqil emasligi muammosi, ayniqsa, xodimlarning manfaatlarini rasman ifodalovchi, ammo amalda ish beruvchi tomonidan nazorat qilinadigan "cho'ntak" tashkilotlari shaklida aniqlandi. XMTga ko'ra, bunday tuzilmalar ishchilarning ishonchiga putur yetkazadi va kasaba uyushmalarining mustaqilligi tamoyilini buzadi. Ruth Dukes ta'kidlaganidek, kasaba uyushmalari kapital hokimiyatiga "qarshi turishi" kerak, ammo "cho'ntak" tuzilmalari ularni haqiqiy vakillik va jamoaviy harakatni ta'minlay olmaydigan huquqiy soxtalikka aylantiradi.

Keyingi muammo sifatida vakillik masalalarida huquqiy noaniqlik ko'rsatilgan. Korxonada bir nechta kasaba uyushmalari mavjud bo'lgan yoki birlashgan qo'mitalar tashkil etilgan hollarda, muzokaralarning qonuniy subyektini aniqlashning aniq mexanizmlari mavjud emas. "O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyatining birlashgan qo'mitasi faoliyati bunga misol bo'la oladi, unda boshlang'ich tashkilotlarning haqiqiy funksiyalari markazlashtirilgan qarorlar bilan almashtiriladi.

Kasaba uyushmasi faolining kompetentligi masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. I.A. Germanov va Ye.B. Plotnikovalarning ta'kidlashicha, "boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti raisi yoki a'zolarida o'qishga vaqt yoki rag'bat yetishmaydi, ular qolip bo'yicha harakat qilishga odatlangan yoki murakkab masalalarda yuqori organlarga tayanadi". Bunday tayyorgarlikning yetarli emasligi ayniqsa ish beruvchining professional vakillari bilan qarama-qarshilikda kasaba uyushmalari himoyasining samaradorligini pasaytiradi.

Bundan tashqari, dissertatsiyada kasaba uyushmasi a'zolarining kasaba uyushmasi faoliyatiga kam jalb etilganligi muammosi ko'rib chiqilgan. Bu birlamchi

tashkilotlarning qonuniyligi pasayishiga olib keladi va ularni ish beruvchi oldida zaif qiladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kasaba uyushmalari ishini "yangilash" va unga oddiy a'zolari jalb qilish kasaba uyushmalari harakatini jonlantirishning asosiy omillaridan biridir (Germanov, Plotnikova). Ichki demokratiya va samaradorlikning yo'qligi kasaba uyushmasi va ishchilar o'rtasidagi begonalashuvni kuchaytiradi, xolos.

Muallif umumlashtirib, boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining huquqlarini amalga oshirish muammolari – huquqiy noaniqlik va institutsional qaramlikdan tortib, kadrlar tayyorlashning zaifligi va xodimlarning past motivatsiyasigacha – o'zaro bog'liq va kompleks chora-tadbirlarni talab qiladi, degan xulosaga keladi. Ayrim tadqiqotchilar (N. Saparniyazov, S. Yunusova) qonunchilikni takomillashtirish, xususan, boshlang'ich tashkilotlarning vakolatlarini kengaytirish va kasaba uyushmalari nazorati mexanizmlarini aniqlashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Boshqalar esa institutsional yangilanish va kasaba uyushmalarining ichki faolligini oshirish zarurligiga e'tibor qaratadilar. Ushbu yondashuvlarning uyg'unlashuvi, xalqaro amaliyot va standartlarga tayangan holda, muallif tomonidan islohotlarning optimal yo'nalishi sifatida ko'rib chiqiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi ikkinchi paragrafida mehnatni raqamlashtirish va bandlikning yangi shakllarini joriy etishning boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya mehnat munosabatlarining an'anaviy shakllarini yo'q qilishga olib keladi, bu esa masofaviy ish, platforma bandligi va algoritmik boshqaruvning tarqalishiga sabab bo'ladi. Sh. Ibragimova ta'kidlaganidek, raqamlashtirish klassik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni va mehnat huquqi institutlarini xodimlarning mehnat huquqlarini tartibga solishning noodatiy shakllariga moslashtirishni talab qiladi.

GIG – iqtisodiyot va frilans tahliliga alohida e'tibor qaratildi, bu yerda mehnat ko'pincha standart mehnat shartnomasini tuzmasdan amalga oshiriladi. Yevropa ta'lim jamg'armasi ma'lumotlariga tayanib, bandlikning bunday shakllarida xodimlar o'zini o'zi band qilgan yoki mustaqil pudratchi sifatida rasmiylashtirilayotgani, bu esa ularni ijtimoiy kafolatlar va jamoaviy shartnomaviy tartibga solishdan mahrum qilayotgani ta'kidlangan. Statistik ma'lumotlarda keltirilishicha, 2022-yil sentyabr holatiga ko'ra, O'zbekistonda 1,87 millionga yaqin o'zini o'zi band qilgan shaxslar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning katta qismi kasaba uyushmalari himoyasi bilan qamrab olinmagan.

Mehnatni raqamli o'zgartirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy muammolarga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining elektron aloqa kanallaridan foydalanish huquqini qonunchilikda mustahkamlash zarurligi ta'kidlanmoqda. Bu borada xorijiy tajribadan misollar ko'rib chiqildi. Yevropa Ittifoqining platforma ishi to'g'risidagi direktivasi loyihasida (20-modda) raqamli platforma operatorlarining kasaba uyushmalari bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun xodimlarga himoyalangan aloqa kanallarini taqdim etish majburiyati ko'zda tutilgan. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, bunday chora-tadbirlar umumiy ish joyining yetishmasligini qoplash va raqamli muhitda mehnatkashlarni safarbar qilish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, boshlang'ich tashkilotlarning texnik va kadrlar qoloqligi muammosi tahlil qilindi. N.V. Zakalyujnaya ta'kidlaganidek, onlayn platformalar

orqali faoliyat yurituvchi “raqamli masofaviy kasaba uyushmasi” yangi a’zolari jalb qilish va mehnatkashlar manfaatlarini ifodalash samaradorligini oshirish vositasiga aylanishi mumkin. Lekin raqamli tengsizlik, zaif infratuzilma va kasaba uyushmalari muhitida innovatsiyalarga konservativ munosabat tufayli bunday modelni amalda qo’llash qiyin kechadi.

O’tkazilgan tahlillar asosida boshlang’ich kasaba uyushmalari tashkilotlarini transformatsiya qilish zarurligi to’g’risida xulosaga kelindi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini, shuningdek, “Raqamli O’zbekiston – 2030” milliy dasturining strategik yo’nalishlarini hisobga olgan holda, dissertatsiyada kasaba uyushmalariga yangi toifadagi xodimlarni (kuryerlar, IT-mutaxassislar, frilanserlar) kiritish, professional tashkilotlarning ichki faoliyatini raqamlashtirish, shuningdek, kiberxavfsizlikni ta’minlash va a’zolarining shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish bo’yicha chora-tadbirlar taklif etilgan. Faqat kompleks moslashuv boshlang’ich tashkilotlarga raqamli iqtisodiyot sharoitida o’z rolini saqlab qolish va xodimlarning mehnat huquqlarini samarali himoya qilish imkonini berishi ko’rsatilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi uchinchi paragrafida boshlang’ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyati sohasidagi qonunchilik va huquqni qo’llash amaliyotini takomillashtirish bo’yicha takliflarni shakllantirishga bag’ishlangan. Ularning institutsional maqomi va aniqlangan muammolar tahlili asosida kasaba uyushmalari vakolatlarini huquqiy tartibga solish va amalga oshirish samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks tavsiyalar ishlab chiqilgan. Takliflar ikkita asosiy yo’nalish bo’yicha guruhlangan: normativ-huquqiy bazani o’zgartirish va huquqni qo’llash amaliyotini takomillashtirish.

Dissertant qonunchilikni takomillashtirish borasida quyidagilarni taklif etadi:

- “Kasaba uyushmalari to’g’risida”gi Qonunda “vakillik” va “himoya” tushunchalarini farqlash, shuningdek boshlang’ich kasaba uyushmasi tashkilotining huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi alohida moddani kiritish;

- ortiqcha talablar va muddatlarni bartaraf etgan holda boshlang’ich kasaba uyushmalari tashkilotlarini ro’yxatdan o’tkazish tartibini soddalashtirish va tizimlashtirish;

- boshlang’ich tashkilot a’zolarining minimal yo’l qo’yiladigan sonini (kamida uchta) belgilash, agar u kamaysa, uning faoliyati to’xtatilishi zarur;

- taqdim etish ro’yxati va muddatlarini belgilagan holda ish beruvchidan axborot olish huquqini mustahkamlash;

- raqamli bandlikni tartibga solishda boshlang’ich tashkilotlarning ishtirokini hamda o’zini o’zi band qilganlar va gig-xodimlarning manfaatlarini ifodalashni nazarda tutish;

- XMTning xalqaro standartlariga muvofiq ish tashlash huquqini qonuniylashtirish;

- yakka tartibdagi mehnat nizolarini, shu jumladan yangi yoki o’zgartirilgan mehnat sharoitlari to’g’risidagi nizolarni hal qilishda boshlang’ich kasaba uyushmalarining ishtirokini kengaytirish;

- korxonada bir nechta kasaba uyushmalari mavjud bo’lganda jamoaviy muzokaralarning huquqiy ta’rifini va vakillikni tan olish mexanizmini joriy etish;

- alohida tarkibiy bo’linmalarda jamoa shartnomalarini tuzish tartibini aniqlashtirish;

- tashkilot mulkdori o'zgarganda jamoa shartnomasining amal qilish muddatini olti oydan bir yilgacha uzaytirish.

Takliflar huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, huquqiy aniqlikni oshirish va mehnat munosabatlarining zamonaviy o'zgarishi sharoitida ijtimoiy muloqotning to'laqonli ishtirokchisi sifatida boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining rolini kuchaytirishga qaratilgan.

Paragrafning ikkinchi qismida huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar keltirilgan. Kasaba uyushmalari tizimini boshlang'ich bo'g'in bilan institutsional yaqinlashtirish, boshlang'ich tashkilotlarning funksional avtonomiyasini kuchaytirish, hududiy tuzilmalar va mehnat jamoalari o'rtasidagi masofani bartaraf etish zarurligi asoslangan.

Xodimlar va kasaba uyushmalari faollarining huquqiy savodxonligini oshirish, tizimli o'qitish, shu jumladan raqamli formatlarni joriy etish va tajriba almashishga alohida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan mehnatkashlar manfaatlarini samarali ifodalash va himoya qilishga qodir bo'lgan yuqori malakali kasaba uyushmalari kadrlarini tayyorlashni ta'minlashga da'vat etilgan kasaba uyushmalari harakatining ixtisoslashtirilgan maktabini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, xodimlarning kasaba uyushmalari faoliyatidagi ishtirokini rag'batlantirish, ichki demokratiyani rivojlantirish, muloqot va ovoz berish uchun raqamli vositalarni joriy etish, jamoaviy muzokaralar qamrovi bo'yicha davlat va xususiy sektor o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish tavsiya etiladi. Kasaba uyushmalari faoliyatining shaffofligi va boshqaruvchanligini oshirish maqsadida a'zolari ro'yxatga olish, huquqiy maslahat berish, o'qitish va yuqori turuvchi tuzilmalar bilan hamkorlik qilish uchun yagona raqamli platformani yaratish taklif etiladi.

Bundan tashqari, sudlar, advokatlar va mehnat inspeksiyalari uchun boshlang'ich tashkilotlarning huquqiy maqomi va funksiyalari bo'yicha uslubiy materiallar tayyorlash muhimligi ta'kidlangan. Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarning kompleks tarzda amalga oshirilishi mehnat munosabatlarining zamonaviy modelida boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining rolini sezilarli darajada kuchaytirish imkonini beradi.

XULOSA

Muallif tomonidan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy taklif va xulosalarni ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Kasaba uyushmalarining xorijiy modellari (Angliya, AQSh, Fransiya, Germaniya) ning tarixiy-qiyosiy tahlili ushbu institut evolyutsiyasining asosiy tendensiyalarini aniqlashga imkon berdi – tor kasbiy yopiqlikdan xodimlarning keng qatlamlari vakilligiga, iqtisodiy o'zaro yordamdan ijtimoiy va siyosiy faollikka, ish beruvchi bilan qarama-qarshilikdan hamkorlik modellariga.

2. Boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotining o'zbek modeli tranzit xarakterga ega ekanligi asoslangan: u sovet tizimidan meros bo'lib qolgan institutsional qaramlikdan avtonomiya va xalqaro hamkorlik standartlariga

yaqinlashish tomon harakatlanmoqda. Ushbu jarayonni yakunlash uchun kasaba uyushmalari ishni tashkil etish tamoyilini o'zgartirishi kerak: "yuqoridan pastga" vertikal o'rniga "pastdan yuqoriga" demokratik modelini qurish, bunda boshlang'ich tashkilotlar ustuvorliklarni belgilaydi, yuqori tuzilmalar esa qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish rolini bajaradi.

3. Tadqiqotda boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatida "vakillik" va "himoya" funksiyalarining farqlanishi asoslab berilgan. Vakillik ish beruvchilar, davlat va boshqa subyektlar bilan o'zaro munosabatlarda xodimlarning manfaatlarini ifoda etishning qonun bilan mustahkamlangan majburiyati sifatida, himoya esa kasaba uyushmasining buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha harakatlari, shu jumladan sud va ma'muriy vakillik sifatida talqin qilinadi. Bunday differentsiatsiya huquqiy noaniqlikni bartaraf etadi va kasaba uyushmalarining ijtimoiy sheriklik va huquqni himoya qilish faoliyati samaradorligini oshirishga imkon beradigan qonunchilikni mustahkamlashni talab qiladi.

4. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining mehnat huquqining mustaqil subyekti sifatida vakillik qilish va xodimlar manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy sheriklikda ishtirok etish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlangan mualliflik ta'rifi shakllantirilgan, bunda yuridik shaxs maqomining mavjud emasligi uning huquq subyektiligini pasaytirmaydi.

II. Amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

5. "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonunga boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining huquq va majburiyatlariga bag'ishlangan alohida modda kiritilib, ularning vakolatlari va majburiyatlarining aniq ro'yxati, shu jumladan vakillik qilish, muzokaralarda ishtirok etish, mehnat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, axborotdan foydalanish, xodimlarning huquqlarini sud orqali himoya qilishda ishtirok etish kabilar ko'rsatib o'tilishi lozim.

6. Boshlang'ich kasaba uyushmalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni soddalashtirish va ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf etish maqsadida uni qayta ko'rib chiqish zarur.

7. "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish va uning faoliyat ko'rsatishi uchun eng kam miqdoriy mezonlarni belgilash yuzasidan o'zgartirishlar kiritish talab etiladi. Xususan, kasaba uyushmasi kamida uch nafar a'zosi bo'lgan taqdirda o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkinligi to'g'risidagi normani mustahkamlash zarurati asoslantirilgan. Kasaba uyushmasi a'zolari soni belgilangan eng kam miqdordan kamaygan taqdirda, ushbu tashkilot faoliyatini bir oygacha bo'lgan muddatga vaqtincha to'xtatib turish majburiyatini nazarda tutish taklif etilmoqda. Agar ko'rsatilgan muddat ichida a'zolar soni belgilangan darajaga yetmasa, kasaba uyushmasi bir oylik davr tugaganidan keyin besh ish kuni ichida faoliyatini tugatishi kerak.

8. XMTning 87- va 98-sonli Konvensiyalari qoidalarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida boshlang'ich kasaba uyushmalarining jamoaviy harakat qilish (ish tashlash huquqi) huquqini mustahkamlash taklif etiladi. Ish tashlashlar qonuniyligining aniq yuridik shartlarini belgilash, oldindan xabardor

qilish tartibini va jamoaviy aksiyalarni o'tkazish tartibini belgilash, shuningdek, aholining hayot ta'minoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda ish tashlashlar o'tkazishga asoslangan cheklovlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq.

9. Kasaba uyushmalari faoliyatini mehnat munosabatlarini raqamlashtirish sharoitlariga moslashtirish va xodimlar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonunni kasaba uyushmalari tashkilotlarining elektron aloqa kanallaridan (shu jumladan, korporativ elektron pochta, messenjerlar va boshqa raqamli platformalardan) ustav maqsadlarida foydalanish huquqini mustahkamlovchi qoida bilan to'ldirish taklif etiladi.

III. Amaliy taklif va xulosalar:

10. Kasaba uyushmalari tizimini "quyidan yuqoriga" tamoyili bo'yicha qurishni ta'minlash uchun boshlang'ich tashkilotlarning avtonomiyasini cheklovchi ustav qoidalarini qayta ko'rib chiqish va ularning yuqori tuzilmalar qarorlarini bajarishdan asosli ravishda bosh tortish huquqini mustahkamlash zarur.

11. Mehnatni raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich kasaba uyushmalari faoliyatining samaradorligi va boshqaruvchanligini oshirish uchun markazlashtirilgan elektron hisobga olish tizimini joriy etish, kasaba uyushmalari faollarini raqamli kompetensiyalarga o'qitish, shuningdek masofaviy va moslashuvchan bandlik shakllarini tarqatishda ayniqsa dolzarb bo'lgan videokonferensiyalar, onlayn ovoz berish va masofaviy a'zolik formatini o'tkazish huquqini nizomlarda me'yoriy mustahkamlash taklif etiladi.

12. Boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muvofiqlashtiruvchi daraja sifatida hududiy bo'g'inni kuchaytirish orqali tashkiliy tuzilmani optimallashtirish imkoniyatini ko'rib chiqish zarur. Hududiy kasaba uyushmalari tarmog'ining kengayishi rahbar tuzilmalar va quyi tashkilotlar o'rtasida "ko'priki" vazifasini o'tashi, boshlang'ich kasaba uyushmalarining avtonomiyasini saqlab qolgan holda mehnat jamoalarining so'rovlariga tezkor javob berish va teskari aloqani ta'minlashi kerak.

13. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti korxonada tezkor huquqni himoya qilishning asosiy vositasi bo'lishi kerak. Buning uchun kasaba uyushmalari faollari uchun doimiy o'quv dasturlarini joriy etish, xodimlarning huquqlari buzilgan taqdirda harakat qilishning namunaviy algoritmlarini (yo'riqnomalar, metodikalar, "yo'l xaritalari") ishlab chiqish, shuningdek, boshlang'ich tashkilotlar darajasida mavjud bo'lgan huquqni himoya qilish xizmatlari tarmog'ini rivojlantirish zarur.

14. Kasaba uyushmalari harakatining barqaror kadrlar salohiyatini shakllantirish uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim tuzilmasi – "Kasaba uyushmalari harakati maktabi"ni tashkil etish maqsadga muvofiq. U kasaba uyushmalari xodimlarini tizimli tayyorlash va malakasini oshirish, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mehnat huquqlarini samarali himoya qilish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.07/30.12.2019.YU.22.01 П ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

РЗАЕВА ГУЗАЛЯ ТУРГУНБАЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕРВИЧНЫХ
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СОЮЗОВ В ОРГАНИЗАЦИЯХ**

12.00.05 – Трудовое право. Право социального обеспечения.

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии по юридическим наукам (PhD)

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2023.2.PhD/Yu1063.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsul.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Хамрокулов Баходир Мамашарифович**
Доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Зиядуллаев Махмуджон Джуракулович**
Доктор юридических наук, доцент

Мадрахимова Гулжахон Рузимбой кизи
доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Ведущая организация: **Правоохранительная Академия Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «19» декабря 2025 года в 12:00 на заседании Научного совета DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, д.35 Тел.: (99871) 233-66-36 факс: (99871) 233-37-48, email: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1461). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан 04 декабря 2025 года.

(протокол реестра № 100 от 4 декабря 2025 года).

И.Р.Рустамбеков
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
юридических наук, профессор

Д.Ю.Хабибуллаев
Научный секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, кандидат
юридических наук, профессора

Б.К.Ходжаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор юридических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В мире более 280 миллионов работников являются членами профсоюзов (по данным Международной конфедерации профсоюзов, ITUC, 2023)¹, и первичные профсоюзные организации продолжают оставаться важнейшим институтом защиты трудовых прав. Однако уровень профсоюзного членства неуклонно снижается: например, в странах Организации экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) он упал с 33,9 % в 1975 году до 15,8 % в 2022 году², что свидетельствует о кризисе доверия и недостаточной адаптации первичных профсоюзных структур к современным вызовам.

На международном уровне наблюдаются тенденции к трансформации профсоюзного движения, в частности, расширение его функций от традиционной правозащиты к активному участию в формировании социальной политики, цифровой грамотности, защите прав работников в условиях нестандартной занятости. Это требует от первичных организаций новых подходов к организации работы, внедрения инновационных форм взаимодействия с членами профсоюза и усиления правового и стратегического потенциала.

В Узбекистане, несмотря на наличие более 37 тысяч первичных профсоюзных организаций³, их деятельность до сих пор осуществляется преимущественно в рамках устаревших, унаследованных от советского периода моделей: основное внимание уделяется распределению путёвок, оказанию материальной помощи и проведению культурно-бытовых мероприятий, тогда как правозащитная и представительская функции остаются на периферии. Это снижает доверие работников, мотивацию к вступлению в профсоюзы и ограничивает их влияние на принятие решений работодателями. В современных условиях — цифровизации, гибких форм занятости и роста правовой грамотности — необходим пересмотр роли первичных организаций как самостоятельных и проактивных участников системы социального партнёрства. При этом на практике сохраняются такие противоречия, как слабое участие в коллективных переговорах, формальный характер деятельности, зависимость от администрации, недостаточная защита прав работников и пробелы в законодательном регулировании полномочий первичных организаций. Всё это формирует научную проблему, заключающуюся в необходимости совершенствования как правовой, так и организационной модели функционирования первичных профсоюзов.

С точки зрения законодательства, тема диссертационного исследования направлена на реализацию задач, предусмотренных Трудовым кодексом Республики Узбекистан (2022), а также Законами «О профессиональных

¹ <https://www.ituc-csi.org/>

² <https://www.oecd.org/en/>

³ https://uza.uz/ru/posts/mamlakatimizdagi-yangilanish-zharayonida-kasaba-uyushmalari-ham-faol-qatnashmoqda_655453?q=%2Fposts%2Fmamlakatimizdagi-yangilanish-zharayonida-kasaba-uyushmalari-ham-faol-qatnashmoqda_655453

союзах» (2019), «О негосударственной некоммерческой организации» (1999), «Об общественных объединениях» (1991), «О социальном партнерстве» (2014), и другими нормативно-правовыми актами. Кроме того, государственная политика в этой сфере последовательно проводится в русле укрепления роли профсоюзов. Президент Республики Узбекистан в своём обращении по случаю профессионального праздника профсоюзов особо подчеркнул: *«...Считаю, что все работодатели и руководители в нашей стране должны следовать общепризнанному в мире правилу: на каждом предприятии, в учреждении обязательно должна действовать профсоюзная организация, и руководители обязаны тесно сотрудничать с ней. Только тогда мы сможем предотвратить нарушения трудового законодательства и утвердить в нашей жизни социальную справедливость...»*¹. Это подчёркивает государственную значимость проблемы и необходимость правовой модернизации профсоюзной деятельности на уровне первичных организаций.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства» (2020).

Степень изученности проблемы. В процессе подготовки настоящего диссертационного исследования автором был осуществлён всесторонний анализ значительного массива нормативно-правовых актов Республики Узбекистан и ряда зарубежных государств. Особое внимание было уделено изучению организационной и правовой деятельности первичных профсоюзных организаций в различных регионах республики. Кроме того, проведена оценка результатов социологического опроса, направленного на выявление актуальных проблем и общественного восприятия деятельности профсоюзов. Эти источники послужили важной эмпирической базой для обоснования теоретических положений и практических выводов диссертации.

В последние годы в Узбекистане были выполнены отдельные научные исследования, затрагивающие вопросы трудового права и смежных аспектов, в том числе имеющих отношение к деятельности профсоюзных организаций. Так, М.А. Рахимов защитил докторскую диссертацию на тему «Защита трудовых прав работников (сравнительно-правовой анализ)», Л.У. Рахимкулова – на тему «Порядок рассмотрения индивидуальных трудовых споров», Б.Ч. Ярашев – «Правовое регулирование трудовых отношений на уровне локальных нормативных актов» и М.Р. Тошов – «Прекращение трудового договора по инициативе работодателя, не связанное с виновным поведением работника».

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/5688>

Кроме того, в своих научных трудах отдельные вопросы, связанные с правовым статусом и функциями первичных профсоюзных организаций, анализировались такими исследователями, как Х. Бурханходжаева, М. Каримжанов, Г. Саттарова, Н. Сапарниязов, У. Авезов, А. Абдурахманов, А. Нуритдинова, А. Юлдашев, С. Юнусова и А. Юнусходжаев¹.

В странах СНГ исследования в области деятельности первичных профсоюзных организаций проводили такие авторы, как Ф.А. Абаев, А.А. Аппаков, Ю.А. Белая. Научно-практическую ценность для настоящей работы представляют труды Д.В. Лобка, А.М. и М.В. Лушниковых, Г.В. Мальцевой, Л.М. Маировой, Т.П. Шишулиной и И.В. Шкловца².

В зарубежных странах вопросами функционирования профсоюзных организаций и механизмов социального диалога получила широкое освещение в трудах ряда ведущих исследователей. Значительный вклад в развитие профсоюзного движения внесли такие авторы, как J.M. Bonvin, J.E. Dolvik, L. Eldring, R. Dukes, B. Hepple, B. Langille. Особого внимания заслуживает классический труд А. Lyon-Caen и J.D. Pellissier «*Droit du travail*», в котором комплексно рассмотрены вопросы трудового законодательства и институтов представительства интересов работников. Теоретико-прикладной подход к анализу правового статуса профсоюзов и моделей коллективного трудового регулирования прослеживается в работах Т. Novitz, Veit Valentin, а также современных исследователей из Азии — Нгуен Тху Ха и Данг Суан Жапа³.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Тема диссертационного исследования была реализована в рамках таких научных проектов Ташкентского государственного юридического университета, как «Выявление перспектив развития трудового законодательства и исследование научно-теоретических и практических проблем правового регулирования рынка труда» и «Исследование вопросов имплементации в национальное законодательство результатов, полученных на основе теоретического анализа достижений международного трудового права и законодательной практики развитых стран», соответствующих плану научно-исследовательских работ.

Целью научного исследования является комплексный анализ правового и организационного механизма функционирования первичных профсоюзных организаций в Республике Узбекистан, выявление существующих проблем в их деятельности, а также разработка теоретически обоснованных предложений по совершенствованию их правового статуса, полномочий и роли в системе социального партнёрства с учётом международного опыта и национальных особенностей правового регулирования труда.

¹ Полный список работ данных ученых приведен в списке использованной литературы диссертации.

² Полный список работ данных ученых приведен в списке использованной литературы диссертации.

³ Полный список работ данных ученых приведен в списке использованной литературы диссертации.

Исходя из вышеназванной цели, определяем следующие задачи:

- проанализировать теоретико-правовые основы функционирования первичных профсоюзных организаций как института защиты трудовых прав работников;
- рассмотреть правовые модели участия первичных профсоюзных организаций в регулировании трудовых отношений, в том числе в рамках коллективных переговоров и социального партнёрства;
- проанализировать зарубежный опыт правового регулирования статуса и функций первичных профсоюзов, в частности в странах СНГ и развитых правовых системах;
- исследовать нормативно-правовую базу, регулирующую деятельность первичных профсоюзов в Республике Узбекистан, выявить её достоинства и недостатки;
- изучить реализацию прав первичных профсоюзных организаций по защите трудовых и социально-экономических интересов работников, а также проанализировать практику их участия в разрешении индивидуальных и коллективных трудовых споров на региональном уровне, с учётом результатов социологических опросов об их эффективности;
- выявить и классифицировать основные проблемы, препятствующие эффективной реализации прав первичных профсоюзных организаций, в том числе в сфере правоприменительной практики, с учётом региональной и отраслевой специфики;
- проанализировать влияние цифровизации и распространения новых форм занятости на деятельность первичных профсоюзных организаций;
- разработать предложения по совершенствованию действующего законодательства и механизмов правоприменения в данной сфере.

Объектом исследования являются общественные отношения, складывающиеся в процессе создания, деятельности первичной профсоюзной организации в организациях, реализации функций профсоюзной организации, а также взаимодействия профсоюзной организации с работодателем в рамках социального партнёрства.

Предметом исследования являются правовые и организационные аспекты функционирования первичных профсоюзных организаций, их роль и функции в системе социального партнёрства, а также нормы трудового законодательства, регулирующие их правовой статус, участие в охране труда, защите трудовых прав работников и взаимодействии с работодателями. В рамках исследования рассматриваются также доктринальные подходы к пониманию первичных организаций как института гражданского общества и субъекта коллективно-договорного регулирования, включая теоретические модели их трансформации в условиях цифровизации и новых форм занятости.

Методология и правовая база исследования. В ходе исследования были применены такие методы, как исторический, системно-структурный, сравнительно-правовой, логический, конкретно-социологический, комплексное исследование научных источников, индукция и дедукция, анализ статистических данных.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

обосновано, что предоставление права первичным профсоюзным организациям и их подразделениям, не обладающим статусом юридического лица, самостоятельно принимать решение о регистрации в органах юстиции, усиливает их организационную автономию и способствует признанию таких структур самостоятельными субъектами социального партнёрства;

обосновано, что предоставление идентификационного налогового номера (ИНН) подразделениям и первичным профсоюзным организациям, не имеющим статуса юридического лица, на добровольной основе расширяет их административные и финансовые возможности, в том числе в вопросах открытия банковских счетов, заключения договоров и ведения отчетности;

обосновано, что нормативное закрепление принципа ограничения человеческого фактора при постановке на учёт первичных профсоюзных организаций, не обладающих статусом юридического лица, представляет собой важный шаг в направлении минимизации субъективизма и административных барьеров при реализации прав на объединение. Такой подход способствует созданию прозрачной, унифицированной и менее зависимой от усмотрения чиновников процедуры, что, в свою очередь, усиливает институциональные гарантии свободы деятельности профсоюзов на первичном уровне;

обосновано, что расширение способов постановки на учёт первичных профсоюзных организаций — через Государственные центры обслуживания, электронную платформу Негосударственных некоммерческих организаций и Единый интерактивный портал государственных услуг — значительно упрощает административные процедуры и повышает доступность регистрации;

обосновано, что признание за профсоюзами, включая их первичные организации, права на обращение в суд в интересах работников усиливает их процессуальный статус и правозащитную функцию.

Практические результаты исследования заключаются в следующем:

обосновано, что главными функциями первичных профсоюзных организаций должны являться представительство и правовая защита интересов работников. При этом в иерархии профсоюзной сети именно первичная организация должна занимать центральное место, а принцип деятельности всей системы должен быть выстроен «снизу вверх», когда инициатива и решения исходят от низового уровня и поднимаются на более высокие ступени профсоюзной структуры;

разработаны предложения по внесению изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О профессиональных союзах» и Трудовой кодекс, включая введение отдельной статьи о правовом статусе первичных профсоюзных организаций, уточнение понятий «представительство» и «защита», закрепление минимального численного состава для создания первичной организации, правовое определение коллективных переговоров и признание права на забастовку, регламентацию использования цифровых каналов связи и онлайн-форм участия;

обоснована авторская дефиниция первичной профсоюзной организации, раскрывающая её как самостоятельный субъект трудового права, обладающий правами на представительство, защиту интересов работников, участие в социальном партнёрстве и осуществление общественного контроля, несмотря на отсутствие статуса юридического лица;

обосновано, что устранение правовой неопределённости в вопросах регистрации, полномочий представительства, доступа к информации и участия в коллективных переговорах является необходимым условием эффективного функционирования первичных профсоюзных организаций;

подготовлены нормативные предложения, направленные на упрощение порядка регистрации первичных профсоюзов и исключение избыточных административных процедур, что способствует реализации конституционного права на объединение;

обосновано, что отсутствие в национальном законодательстве института забастовки и иных форм коллективных действий существенно ограничивает механизмы защиты интересов работников и не соответствует международным трудовым стандартам, закреплённым в конвенциях МОТ;

разработаны практические рекомендации по созданию сети правозащитных служб в структуре первичных организаций, внедрение цифровой платформы для обучения, консультаций и обмена опытом, составление методических пособий и алгоритмов действий при нарушениях трудовых прав;

сформулирован комплекс предложений по цифровизации профсоюзной деятельности: ведение электронного учёта членов профсоюзов, использование видеосвязи и онлайн-голосования в рамках внутренних процедур, внедрение дистанционного членства и цифровых инструментов вовлечённости работников.

Достоверность результатов исследования. Результаты исследования основаны на нормах национального законодательства и международного права, опыте развитых государств, правоприменительной практике, формах анкетирования, интервью и экспертного опроса, проведенных среди практиков, обобщены результаты анализа статистических данных и оформлены соответствующими документами. Выводы, предложения и рекомендации прошли апробацию, их результаты опубликованы в ведущих национальных и зарубежных изданиях. Полученные результаты утверждены уполномоченными органами государственной власти и внедрены в практику.

